

Fóрте – piáno



Musiqqa kuchli yoki kuchsiz jaranglashi mumkin. Bu tovush kuchining qandayligiga bog'liq.

Kuy qayerdadir sokin, qayerdadir jarangli ovozda eshitilishi uchun musiqada tovush kuchini belgilovchi so'zlar mavjud.

Kuchli musiqiy tovushlar **fóрте**, sokin musiqiy tovushlar esa **piáno** so'zi bilan belgilanadi. Bu so'zlar italyan tilidan olingan.

f (fóрте)
kuchli

p (piáno)
kuchsiz



Tez aytishlarni avval kuchli (fóрте), so'ng kuchsiz (piáno) tovushda o'qing. Sizga qaysi turdagi o'qilishi yoqdi? Nima uchun?



Asalari asalini
ayiqdan ayamadi.



Tolib tandir tagidan
tanga topdi.



Rasmlarga e'tibor bilan qarang.

- Ayiq qanday tovush chiqaradi? (Kuchlimi yoki kuchsiz?)
- Asalari-chi?
- Odamlar ovozi kuchli yoki kuchsiz bo'lishi mumkinmi?



Kompozitor E. Grigning “Tong” asarini tinglang.



12



Kompozitor L. Betxovenning “Momaqaldiroq. Bo‘ron” asarini tinglang.



13



Tinglagan asarlaringizni taqqoslang.
Qaysi musiqa kuchli, qaysi biri kuchsiz
yangragan?

